



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

Korxonada Audit Tekshiruvi O‘Tkazishning Ahamiyati

Turumova Dildora Abdumannonovna

Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi o'qituvchisi

Umarova Dilobar Fazliddin qizi

Jizzax politexnika instituti “Kibersport” fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

Audit tekshiruvida odatda audit jarayonining maqsadi, mohiyati, turlari va asosiy qoidalari yoritiladi. Audit tekshiruvining asosiy maqsadi — korxona yoki tashkilotning moliyaviy hisoboti, faoliyati va ichki nazorat tizimining ishonchlilagini baholashdan iborat.

Kalit so’zlar: audit jarayoni, moliyaviy hisobot, ichki audit, tashqi audit, xavf tahlili, ichki nazorat tizimi, muvofiqlik audit, ishlash audit, rejalshtirish, tahlil qilish, baholash, hisobot tayyorlash.

Katta va kichik hajmdagi korxonalar uchun audit tekshiruvi o‘tkazish jarayoni muhim ahamiyatga ega. Chunki audit korxona faoliyatining moliyaviy ishonchliligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim nazorat mexanizmidir. Korxonaning moliyaviy hisoboti, buxgalteriya yozuvlari, soliqqa oid hisobotlar, shuningdek, korxona ichki jarayonlarining samaradorligini aniqlash, tekshirish va tahlil qilish audit tekshiruvining asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi. Ushbu tekshiruv jarayoni korxona menejmenti, investorlar, davlat idoralari va boshqa manfaatdor tomonlarga korxonaning moliyaviy holati va faoliyati to‘g‘risida aniq va haqqoniy ma’lumot taqdim etishga xizmat qiladi.

Audit tekshiruvi natijalari tashkilotning faoliyati samaradorligi, moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi va qonuniy talablar bajarilishida qanday holatdaligini baholashga yordam beradi. Shu bilan birga, audit jarayoni tashkilotning muammolarini aniqlash, xavflarni minimallashtirish va kelajakdagi kamchiliklarni oldini olish uchun tavsiyalar beradi.

Korxonada audit tekshiruvi o‘tkazish jarayoni bir nechta asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqichlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Auditni rejalshtirish va tayyorgarlik bosqichi

Audit jarayonini samarali o‘tkazish uchun uning maqsadi, hajmi va vaqt belgilanishi zarur. Bu bosqichda auditor audit qilish kerak bo‘lgan sohalarni, ma’lumotlarni va zaruriy resurslarni aniqlaydi. Bu jarayon ichida auditorlar korxonaning ichki va tashqi muhitini, uning xatarlari va imkoniyatlarini, ichki nazorat tizimini o‘rganadilar. Bu orqali audit jarayonining keng ko‘lamda qamrab olinishi va har qanday xavflarni to‘g‘ri baholash uchun zarur ma’lumotlar to‘planadi.

2. Audit tekshiruvi metodologiyasini tanlash

Har bir korxona faoliyat turi, hajmi va ichki nazorat tizimining rivojlanganligi bilan o'ziga xos bo'lganligi uchun, tekshiruvning usullari ham tanlab olinadi. Bu bosqichda auditorlar qanday testlar va protseduralardan foydalananishini belgilaydilar. Moliyaviy hisobotlarni tekshirish uchun to'g'ri usullarni tanlash, xarajatlarni va moliyaviy natijalarni aniq baholashni ta'minlaydi. Shu bilan birga, auditning namunalar asosida o'tkazilishi va ehtimoliy xatolar darajasini hisoblash ham auditorlar tanlaydigan asosiy metodlardan biri hisoblanadi.

3. Ma'lumot to'plash va tahlil qilish

Bu bosqichda auditorlar korxonaning moliyaviy hujjatlarini, hisob-kitob va shartnomalarini, soliqqa oid hujjatlarni hamda ichki nazorat jarayonlariga oid hujjatlarni tahlil qiladilar. Ma'lumot to'plash jarayonida korxonaning turli bo'limlaridan so'rovnomalar va intervyular olish, moliyaviy hujjatlar asosida testlar o'tkazish, operatsiyalar oqimini o'rghanish kabi metodlardan foydalaniadi. Auditorlar ma'lumotlarni to'plash va ularni tekshirish jarayonida korxona rahbariyati va xodimlari bilan ham yaqin aloqada bo'lib, zaruriy savollarga aniqlik kiritadilar.

4. Audit dalillarini baholash va tasdiqlash

Ma'lumot to'plash jarayonida olingan dalillar va natijalar auditor tomonidan chuqur tahlil qilinadi va sinchkovlik bilan tekshiriladi. Dalillar korxonaning moliyaviy holatini haqqoniyligi aks ettiroyotganini tekshirish uchun muhimdir. Shuningdek, ichki nazorat tizimining samaradorligi, korxonaning qonunchilik talablariga muvofiqligi va har qanday xavf-xatar mavjudligini aniqlash uchun yig'ilgan dalillar baholanadi.

5. Audit hisobotini tayyorlash

Audit jarayonining yakuni sifatida audit hisobotini tuzish muhim bosqich hisoblanadi. Bu hisobotda audit natijalari, korxona faoliyatidagi xatoliklar, kamchiliklar va ularni bartaraf etish uchun berilgan tavsiyalar aniq aks etadi. Hisobotda auditarning o'ziga xos xulosasi, ya'ni korxona moliyaviy hisobotining haqqoniyligi va ichki nazorat tizimining samaradorligi haqida umumiy baho beriladi. Bu hisobot korxona rahbariyati, investorlar va davlat nazorat organlariga taqdim etiladi va ular uchun asosiy hujjat hisoblanadi.

6. Audit natijalarini kuzatib borish va tavsiyalarni bajarilishini nazorat qilish

Audit hisobotida berilgan tavsiyalar korxona boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshirilishi muhim. Auditdan keyingi jarayon sifatida kuzatib borish va tavsiyalar bajarilishini nazorat qilish auditni yakuniy maqsadiga yetishini ta'minlaydi. Auditorlar tavsiyalar amalga oshirilishini tekshiradi va keyingi audit jarayonlarida aniqlangan muammolarning bartaraf etilishi bo'yicha takliflar beradi.

Bu bosqichlarning har biri korxonada audit tekshiruvini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali korxona moliyaviy hisobotining haqqoniyligi va ichki nazorat tizimining samaradorligi to'liq ta'minlanadi.

Korxonada audit tekshiruvini o'tkazishning asosiy natijasi korxonaning moliyaviy hisoboti, ichki nazorat tizimi va umumiy faoliyatining ishonchligini tasdiqlashdir. Ushbu jarayon korxonaning moliyaviy holati va operatsiyalari yuzasidan to'liq va haqqoniyligi ma'lumot berish, shuningdek, boshqaruvi qarorlarini yaxshilash uchun zaruriy tavsiyalarni taqdim etish imkonini beradi. Audit jarayonining samarali amalga oshirilishi korxonaga bir qancha foydali jihatlarni taqdim etadi

Audit tekshiruvi xulosasida auditorlar korxona rahbariyatiga faoliyatda uchrayotgan zaif tomonlarni, moliyaviy xatolarni va nazorat tizimlaridagi kamchiliklarni ko'rsatib o'tadilar. Ular tomonidan berilgan tavsiyalar korxonani takomillashtirish va uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlashga yordam beradi. Shu tariqa, korxonada audit tekshiruvi o'tkazilishi – bu nafaqat moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ta'minlash, balki korxonaning umumiy samaradorligi va barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Knechel, W.R., Salterio, S.E., & Ballou, B. - "Auditing: Assurance and Risk"
2. Abdumannonovna, T. D., & Habibullo G'anijon o'g, A. (2024). The Role of International Audit Organizations in the Transition to International Standards in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 2(2), 1-6.
3. Abdumannonovna, T. D. (2024). An Understanding of the Auditor's Professional Ethics and its Importance in the Auditor's Work. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 2(2), 7-11.
4. Abdumannonovna, T. D. (2024). LICENSING PROCEDURE OF AUDITING ACTIVITIES IN UZBEKISTAN AND CURRENT RESULTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 44, 35-40.
5. Abdumannonovna, T. D. (2024). STUDYING THE COMPANY'S ACTIVITIES AND ACCOUNTING DURING THE AUDITOR'S INSPECTION. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(2), 21-27.
6. Abdumannonovna, T. D. (2024). Purpose, Tasks, Necessity of Audit in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 2(2), 89-92.
7. Abdumannonovna, T. D. (2024). Methods of Obtaining Audit Evidence. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 221-226.
8. Abdumannonovna, T. D. (2024). EFFECTIVE RESULTS OF APPLYING ANALYTICAL PROCEDURES IN AUDITING.
9. Abdumannonovna, T. D. (2024). EXTERNAL AUDITORS AND THEIR LIABILITY TO THIRD PARTIES. *Gospodarka i Innowacje.*, 44, 71-75.
10. Abdumannonovna, T. D. (2024). Auditorlik Tekshiruvida Firibgarlikni Aniqlashda Professionallik Qobiliyatini Qo'llash. *Miasto Przyszłości*, 45, 138-144.
11. Abdumannonovna, T. D. (2024). NEW UZBEKISTAN AND THE MUTUAL INTERESTS OF THE "BIG FOUR" INTERNATIONAL AUDITING COMPANIES. *Miasto Przyszłości*, 45, 600-605.
12. Abdumannonovna, T. D. (2024). Audit Risk, its Elements and Their Assessment. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 847-854.
13. Abdumannonovna, T. D. (2024). AUDIT-AS A FACTOR OF INCREASING BUSINESS EFFICIENCY IN ENTERPRISES. *Miasto Przyszłości*, 45, 594-599.
14. Abdumannonovna, T. D. (2024). The Document Presented by the Auditor is " Audit Report and its Contents". *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 991-997.
15. Abdumannonovna, T. D. (2024). Relationship with Auditing Standards in Controlling the Quality of Auditor's Work. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 998-1003.
16. Abdumannonovna, T. D. (2024, March). Auditoring axloq kodeksiga rioya etish burchlarining afzalliklari. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE* (Vol. 1, No. 3, pp. 80-87).
17. Abdumannonovna, T. D. (2024). Respublikamizda auditorlarni sertifikatlashtirish va malakasini oshirishdagi natijalarining samarasi. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 682-687.
18. Турумова, Д. (2022). Банк назоратида ички ва ташки аудит ўтказишнинг аҳамияти. *Science and Education*, 3(12), 1013-1022.

19. Турумова, Д. (2022). Банк кредитлари аудитини такомиллаштириш масалалари. *Science and Education*, 3(10), 640-645.
20. Abdumannonovna, T. D. (2023). WAYS OF DEVELOPING THE INTERNAL AUDIT SERVICE IN BUSINESS ENTITIES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 2(8), 37-40.
21. Turumova, D. A., & o‘g‘li Tolibboyev, Q. G. (2023). AUDITORLIK FAOLIYATIDA TANLAB TEKSHIRISHNING MOHIYATI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(6), 234-240.
22. Turumova, D. A. (2023). O ‘ZBEKİSTONDA İCHKİ NAZORAT TİZİMİ–AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONINING ASOSIY ELEMENTI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 608-612.
23. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA MUHIMLIK DARAJASI. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 2(14), 60-62.